

O‘ZBEKISTONDA PAXTA TO‘QIMACHILIK KLASTER TIZIMINI JORIY ETILISHNING AFZALLIKLARI

Axmadjonova Gulshoda Adixamjon qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti talabasi

E-mail: gulshodaaxmadjonova3@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda hozirgi kundagi zamonaviy paxta klasterlari tizimini avvalgi paxta sa‘noati bilan farqi va ularning afzalliklari haqida, hususan O‘zbekiston 2021-yilgi paxta terimi davrida majburiy va bolalar mehnatiga barham berishga muvaffaq bo‘lganini, Cotton Campaign xalqaro koalitsiyasi O‘zbekiston paxtasiga e‘lon qilingan global boykotni to‘xtatishi kabilar haqida ma‘lumotlar berib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: paxta, tola, zamonaviy klaster tizimi, cotton campaign xalqaro koalitsiyasi, majburiy va bolalar mehnatiga yo‘l qo‘yilmayotgani.

ABSTRACT

This article discusses the differences and advantages of modern cotton clusters in Uzbekistan from the previous system of the cotton industry. Uzbekistan has managed to end forced and child labor during the 2021 cotton harvest, and the Cotton Campaign International Coalition has announced that it will end its global boycott of Uzbek cotton.

Keywords: cotton, fiber, modern cluster system, cotton campaign international coalition, forced and child labor not allowed.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются отличия и преимущества современных хлопковых кластеров в Узбекистане от прежней системы хлопководства. Узбекистану удалось положить конец принудительному и детскому труду во время сбора урожая хлопка в 2021 году, и Международная коалиция «Хлопковая кампания» объявила о прекращении глобального бойкота узбекского хлопка.

Ключевые слова: хлопок, волокно, современная кластерная система, хлопковая кампания международной коалиции, принудительный и запрещенный детский труд.

O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha hozirgi kunda dunyo miqyosida oltinchi o‘rinni band etgan bo‘lib jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qaramay, so‘nggi

yillarda xalqaro paxta bozorining muhim ishtirokchilaridan biri sifatida o'z o'rnini yanada mustahkam bormoqda. Mamlakatimizda barqaror ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichga o'tilishi bilan bog'liq bir qator soxalar kabi paxtachilik soxasida ham yangi tizimni joriy etilishi bo'yicha prezident qarori qabul qilindi. Bu tizimga ko'ra paxtachilik soxasini xususiylashtirish, chet el zamonaviy texnologiyalari asosida ishlaydigan korxonalarini qurish va avalgi paxta sa'noat tizimidagi paxta tozalash korxonalarini klaster to'qimachilik korxonalariga va xududlar bo'yicha ekin yer maydonlari ajratib berish orqali amalga oshirilmoqda. Yurtboshimizning paxta dalalarida yetishtirilgan "oq oltin"ni jahon bozoriga olib chiqish bo'yicha tashabbusi mustahkam asosga ega bo'lib bu borada bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyo bozorida eng yuqori standartlarga javob beradigan o'zbek paxtasiga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Xalqaro O'zbekiston paxta va to'qimachilik yarmarkasining mamlakatimizdagi hamkorlari bilan mavjud amaliy munosabatlarni yanada mustahkamlash va yangilarini joriy qilish orqali manfaatdor bo'lgan ishtirokchilar soni ham yil sayin ortib bormoqda. Izchil islohotlar jarayonida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'zbek tolasi iste'molchilarining keng ko'lamli ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lib mamlakatimizning bu boradagi salohiyati muntazam oshib bormoqda. 2021-yilning may oyida mehnat vazirligi majburiy mehnat uchun ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish hamda bolalar va majburiy mehnatdan foydalanganlik uchun qonunga jinoiy javobgarlikning kiritilishi amalda ushbu sohada jazo samaradorligini oshirishga imkon berganini ma'lum qilgandi. 2022-yilning Xalqaro mehnat tashkiloti O'zbekiston 2021-yilgi paxta terimi davrida majburiy va bolalar mehnatiga barham berishga muvaffaq bo'lganini ma'lum qildi. Ma'lumot uchun, uzoq yillar davomida paxta terimi mavsumida bolalar va majburiy mehnatdan foydalanilgani bois O'zbekiston paxtasi xalqaro jamoatchilik tomonidan "qora ro'yxat"ga kiritilgan, yetakchi ishlab chiqaruvchilar O'zbekiston paxtasini boykot qilgan edi. 2019-yilning 4-fevralida o'sha vaqtdagi bosh vazir o'rinbosari Tanzila Norboyeva boshchiligidagi delegatsiyaning Vashingtonga ishchi tashrifida Cotton Campaign to'qimachilik mahsulotlariga qarshi boykotni bekor qilish bo'yicha rejasini taqdim etgan edi. Cotton Campaign xalqaro koalitsiyasi vakillari 2020- yilning 27-yanvar 6-fevral kunlari O'zbekistonda ishchi tashrif bilan bo'lgan edi. Ular bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda ishtirok etgan investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Sardor Umurzoqov O'zbekiston to'qimachilik sanoatini boykot qilishdan foyda yo'q, deb aytgandi. Shu o'rinda soxaga oid juda katta yangilik bo'ldi Cotton Campaign xalqaro koalitsiyasi O'zbekiston paxtasiga e'lon qilingan global boykotni to'xtatishi to'g'risida xabar berildi.

2020 yildan boshlab respublikamizda paxta xom ashyosi yetishtirish to'liq klaster tizimida amalga oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Hozirda klaster korxonalarini

o'z oldilariga qo'yilgan maqsadlarni bajarib ekishdan boshlab toki tayyor maxsulotgacha bo'lgan jarayonni o'zida qamrab ishlab chiqarishni amalga oshirmoqda. Klasterlar tomonidan mineral o'g'itlarni o'z vaqtida yetkazib berilishi natijasida fermer xo'jaliklariga talab qilinadigan me'yordagi o'g'itlar bilan ta'minlanishiga imkoniyat yaratildi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan joylarda bosqichma-bosqich zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari parkini yaratish, sohani mexanizatsiya darajasini oshirish, yetishtirilgan hosilni chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yish, mahsulot yetishtirishda band bo'lgan aholini sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga o'tkazish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harkatlar strategiyasi» to'g'risidagi PF-4947-sonli farmoni.
2. Hardin R.G., Barnes e.M., Valco T.D., Martin V.B., Clapp D.M. engineering and ginning: effects of gin machinery on cotton quality. Journal of Cotton Science. 2018, Pages 36-46. <https://www.researchgate.net/publication/325809801>
3. 2. Tillaev M. T Babadjanov M. A, "Paxtani dastlabki ishash texnologiasi va jihozlari". Ma'ruza kursi. TTYeSI. Toshkent. 2009.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 dekabrda "Paxta xom ashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4087-son qarori
5. O.Sh.Sarimsakov "Theoretical bases of cotton transfer and pneumatic transport processes" Toshkent-2021